

JAHON ADABIYOTIDA TUSH MOTIVINING O'RGANILISHI VA TADQIQ ETILISH.

Ro'ziyeva Dilyayra Nurmurodovna
Olimova Dilorom Odil qizi
Mansurova Ra'no Jalil qizi

Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi Tillarni o'rganish kafedrası o'qituvchilari:

Annotatsiya: *Ushbu maqola adabiyotshunoslikda olimlar tomonidan o'rganilib kelinayotgan tush motivi haqidadir. Unda hozirgi zamon psixologiyasida motiv atamasi sub'yektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo'llanilishi haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *motiv,epik,syujet,psixologiya.*

Butunni bilish uchun uni yuzaga keltiruvchi qismlarni bilish kerak bo'ladi.

Shu ma'noda epik asarlarning syujet asosini tashkil etuvchi motivlarni bilmasdan ularning mohiyatini anglash mushkul. Demak, dastlab "motiv" o'zi nima, degan savolga javob berish lozim.

—Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'atida "Motiv" syujet tarkibidagi halqalardan biri deyilgan.Syujet asar mazmunini tashkil etgan voqealar tizimi bo'lsa, motiv shu voqelikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur hisoblanadi.

Ma'lumki, epik asar syujeti albatta biror makon va zamonda kechar ekan, bu harakat, shubhasiz, motivlar harakati orqali amalga oshiriladi. Bizning maqsadimiz esa ana shu motivlar, xususan, tush motivining epik asardagi o'rni, boshqa motivlar bilan munosabati, voqelikni yuzaga keltirishdagi tadrijiy rivojini tahlil etishdan iborat. Zero, tush va tush motivi epik asarlarda muhim o'rin tutadi.

Motiv (psixologiyada) inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil, vaj. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi.

Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqa motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida motiv atamasi sub'yektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Xatti- harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Harakat faoliyatning tarkibi bo'lganligi tufayli u faoliyatning maqsadi va motivi orqali boshqariladi. Ba'zan "Motiv" tushunchasini "emotsiya", "maqsad", "ustanovka" atamaları bilan almashtirish hollari uchraydi. Goho turtki, qo'zg'ovchi, undovchi tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.Rus adabiyot fanida A.N. Veselovskiy mif va ertaklarni tahlil qilib, u motiv eng oddiy hikoya birligi bo'lib, uni keyinchalik parchalab bo'lmaydi, degan xulosaga keldi.

Ya'ni epik asar qurilma-strukturasini motivlarsiz tasavvur etish mumkin emas.Epik asarlarning syujet va motivi haqida mutaxassis olimlarning qarashlari turlicha. Biroq ko'pchilik olimlar rus olimi A. N. Veselovskiyning bu boradagi fikrlariga asos sifatida

tayanishadi. Mazkur olim motivlarning syujetni yuzaga keltiruvchi eng asosiy bo'g'in ekanini ta'kidlab, —Motivlar birlashib, syujet halqasini yuzaga keltiradi, – deydi.U motivlarni syujetning eng kichik bir bo'linmas bo'lagi sifatida tahlil etadi.V. Propp va B. Putilovlar esa A. N. Veselovskiyning qarashlarini rivojlantirib, motivlarning hamisha o'zgaruvchan ekanligiga, ular syujetning kichik bir bo'lagi bo'lgan holatda uning o'zi ham bo'laklardan, qismlardan tashkil topishiga e'tibor qaratadilar. “Motiv syujetning mag'zidir”, deydi B. Putilov. Bu o'rinda olim motivlarning tabiiy evolyusion jarayonini nazarda tutadi.

Motivning tematik kontseptsiyasi B.Tomashevskiy va V.Shklovskiy asarlarida ishlab chiqilgan. Ularning tushunishida motiv asarni ajratish mumkin bo'lgan mavzulardir. Har bir jumlada motivlar - kichik mavzular mavjud.Motiv syujetning eng kichik elementi bo'lib, aksariyat xalq og'zaki ijodi va adabiy asarlarda uchraydi.

Syujetni o'rganishda taniqli rus folklorshunosi V. Ya. Propp katta rol o'ynadi. U o'zining "Ertak morfologiyasi" (1929) kitobida gapda bir nechta motivlarning mavjudligini ko'rsatdi. Shuning uchun u motiv atamasidan voz kechdi va o'z toifasiga murojaat qildi: personajlarning funktsiyalari. U elementlar ketma-ketligidan iborat ertak syujeti uchun maket qurgan. Proppning fikricha, qahramonlarning bunday funktsiyalari cheklangan miqdorda mavjud ; hamma ertaklarda barcha funktsiyalar mavjud emas, lekin asosiy funktsiyalarning ketma-ketligiga qat'iy rioya qilinadi. Ota-onalar ketishi bilanoq, bolalar darhol bu taqiqni buzadilar (taqiqni buzish) va hokazo. Propp kashfiyotining mohiyati shundaki, uning sxemasi barcha ertaklarga mos keladi.

Ko'p hollarda motiv takrorlanuvchi so'z, ibora, vaziyat, predmet yoki fikrdir. "Motiv" atamasi turli adabiy asarlarda takrorlanadigan vaziyatni, masalan, yaqin odam bilan xayrlashish motivini bildirish uchun ishlatiladi.

Motivlar obrazlar yaratishga yordam beradi, asar tuzilishida kamida 3 ta vazifani bajaradi.

-Birinchidan, gnoseologik: ko'zgu xarakterni tavsiflash vositasidir, u qahramonning o'zini o'zi bilish usuliga aylanadi.

-Ikkinchidan, bu motiv ontologik yukni ko'taradi: u murakkab fazoviy-vaqt munosabatlarini tashkil qilib, olamlar o'rtasidagi chegara vazifasini bajaradi. -Uchinchidan, oyna motivi aksiologik vazifani bajarishi, axloqiy, estetik va badiiy qadriyatlarni ifodalashi mumkin.

N.Tamarchenkoning fikricha, har bir motiv ikki borlik shakliga ega: - vaziyat -hodisa.

Vaziyat - bu xarakterlar o'zlarini topadigan holatlar, pozitsiya, muhit.

Voqea sodir bo'lgan narsa, shaxsiy, ijtimoiy hayotning muhim voqeasi yoki fakti deb ataladi. Voqea vaziyatni o'zgartiradi. Motiv adabiy asar qahramonlari hayotini tashkil etuvchi voqea va vaziyatlarni bog'lovchi eng sodda bayon birligidir. Voqea sodir bo'lgan voqea, hodisa, shaxsiy yoki jamoat hayotining haqiqati deb ataladi. Vaziyat - bu xarakterlar bo'lgan holatlar, vaziyatlar, shuningdek, ular o'rtasidagi munosabatlar. Hodisa bu nisbatni o'zgartiradi.

Keyingi yillarda adabiy tanqidda motivni tushunishga yondashuvlar sintezi belgilab berildi. Motiv doimo takrordir, lekin takror leksik emas, balki funksional va semantikdir. Ya'ni, asarda u ko'plab variantlar orqali namoyon bo'lishi mumkin.

Motivlar xilma-xil bo'lib, ular orasida arxetipik, madaniy va boshqalar ajralib turadi.

-Arxetiplar kollektiv ongsizlikning ifodasi (ruhni shaytonga sotish motivi) bilan bog'liq.

-Miflar va arxetiplar 1960-yillarda frantsuz tematik tanqidi o'zini bag'ishlagan jamoaviy, madaniy jihatdan obro'li motivlarning xilma-xilligini ifodalaydi. - Madaniy motivlar og'zaki ijod, rasm, musiqa va boshqa san'at asarlarida tug'ilgan va rivojlangan.

Motiv tushunchasi bilan bir qatorda leytmotiv tushunchasi ham mavjud.

Leytmotiv nemis tilidan olingan atama, so'zma-so'z "etakchi motiv" degan ma'noni anglatadi. Bu tez-tez takrorlanadigan tasvir yoki motiv bo'lib, asosiy kayfiyatni bildiradi, shuningdek, bir hil motivlar majmuasidir. Demak, —hayotning behudaligil leytmotivi odatda vasvasa, vasvasa, uyga qarshi motivlardan iborat¹⁰.

Shu o'rinda Yusuf Xos Hojib, Imom G'azzoliy va G'arb faylasuflarining, jumladan, Zigmund Freyd qarashlari o'rtasida yaqinlik mavjudligini ko'ramiz. Garchand Zigmund Freyd va uning izdoshlari tushning ilohiyligini inkor etsalar-da, ammo tushning sirli va mo'jizali ekanligini tan oladilar. Bu borada Imom G'azzoliy fikrlari asosidek tuyuladi:

—Tushda biror bir hodisaning oldindan ko'rilishi sababi qalbning ajoyib sirlari bilan bog'liqki, bu hol mukoshifo ilmi bilan izohlanadi. Zero, shu paytga qadar tushga turlicha ta'rif berilgan va o'rganilgan bo'lsa-da, hamon tush sirililigicha va mo'jizaliligicha qolmoqda. Tush – inson shaxsi, axloqi va ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'liq ekanligi borasida Imom G'azzoliy, Freyd hamda uning izdoshlarining fikrlari hamohangdir. “Karomatli tushlarga sabab”, – deydi Imom G'azzoliy, –“uyquda g'ayb tajalli etadi”. Tushda kishi hissiyotga bo'ysunadi, uyg'onganda esa hissiyotga e'tibor bermaydi, aqlga bo'ysunadi.

Darhaqiqat, uyqu payti biz uyg'oq paytimiz yuzaga chiqishiga aqliy istaklarimiz yo'l qo'ymagan kechinmalarga guvoh bo'lamiz va u bilan birga yashaymiz hamda buni tush deb ataymiz. Aslida tush inson ruhiy dunyosining ajralmas, murakkab va muhim qismidir. Tushga – ichki istak va kechinmalarga e'tiborsizlik tufayli odamzod eng katta fojiaga duch keldi: u o'z qalbini unutib qo'ydi.

Tasavvuf ahllaridan yana biri Ibrohim Haqqi ham o'zining “Ma'rifatnoma” asarida tushni ikkiga ajratadi.

-Rost

-Yolgo'n

Freydning psixoanalitik falsafasi inson borlig'ini vujudga keltirgan asoslarni aniqlashga harakat qilgan. Ayiqsa, inson shaxsi tarkibining asosiy komponentlari, elementlarini aniqlab berishga, kishi xulq-atvori, xarakterining yuzaga kelishi sabablari, individ turmush tarsi printsiplarining hosil bo'lishini tushuntirishga intildi. Uning ta'kidlashicha, inson shaxsida bo'ladigan o'zgarishlar borliqning o'ziga xos, muhim xususiyat va xossalarga ega bo'lgan shaklidir. Freyd o'smirlik davridanoq xayolparast va shuhratparast bo'lgan. Uning ilmga, ayniqsa, tabiiy fanlarga chanqoqligi avj olib borardi. U

barcha ilmlarni egallab, mashhur kishi bo'lishni orzu qilar va ko'p kitob mutolaa qilardi. Freyd maktabda o'qib yurgan paytidayoq Ch. Darvinning ta'limoti bilan qiziqib qoladi va uni boshdan-oyoq o'qib chiqadi. Yosh Freyd o'z tengdoshlariga: "Men Ch. Darvinga o'xshagan tabiatshunos olim bo'laman" deb xitob qilgan.

Menimcha, buning ajablanarli joyi yo'q. Chunki o'smirlar xayolparast va orzumand bo'lishadi. O'sha paytlari endi amaliyotga kirib kelayotgan fizioterapiya usullari va keng qo'llanib kelayotgan gipnoz Freyd kutgan darajada yordam bermayotgan edi. Freyd nevroz va isteriya bilan murojaat qilayotgan bemorlarning aksariyati ayollar ekanligiga e'tibor qaratadi. Psixoanalitiklar nevrozlarni psixoterapevtik yo'l bilan davolashda "Id", "Men" va "Super-men" orasidagi ziddiyatlarni kamaytirishga yoki to'xtatishga harakat qilishadi. Oddiyroq qilib tushuntiradigan bo'lsam, psixoanalitik va mijoz bir xonada yolg'iz qolishi kerak. Mijoz o'zini erkin qo'yib, ko'zlarini yarim yumgan holda kresloga suyanib yotadi. Psixoanalitik undan xayoliga kelgan barcha fikrlarini va unga azob berayotgan voqea va hodisalarni oqizmay-tomizmay so'zlab berishni iltimos qiladi. Bu yerda birorta ham sir qolmasligi va bemor uyalmasligi kerak. Ma'noli so'zlarmi, ma'nosizmi, bemor ularni psixoanalitikka ochib tashlashi shart.

Tushlar - bu psixikaning bostirilgan, unutilgan yoki oddiygina erishib bo'lmaydigan istaklarni amalga oshirish usuli (ya'ni, u tushlarda biz kundalik hayotda nima qilishni yoki olishni xohlayotganimizni orzu qilamiz, deb ishongan). Tushdagi tasvirlar tom ma'noda emas, balki ramziy ma'noga ega - ya'ni u tush tasvirlarini metafora, analogiya, belgi va ramzlar shaklida idrok etishni taklif qildi. (masalan, agar siz suv ustida suzayotgan qayiqni orzu qilsangiz, unda bu tush qayiq haqida emas, suv haqida emas, sayohat haqida emas, balki bu tasvirlar ramziy ravishda ko'rsatadigan narsa haqida).

Xotirada ular baribir aniqlanadi va tungi tushlar davomida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – L.: Vi'sshaya shkola, 1940. – S.494. 8
Putilov B. Motiv kak syujetoobrazuyushey element // Tipologicheskiye issledovaniye po folkloru. – M.: Nauka, 1975. – S.142.

2. Юнг К.Г. Пикассо / Аҳмад Отабой таржимаси // Жаҳон адабиёти. 2001 йил ноябрь

3. Grinser P.A. Epos drevnogo mira // Tipologiya i vzaimosvyazi' literaturi' drevnogo mira. – M.: Nauka, 1971. – S.134 – 205.

4. Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.

5. Husayn ibn Ibrohim Muhammad at-Taflisiy. Mukammal tush ta'birlari / Forsiydan tarix fanlari doktori Mahmud Hasaniy tarjimasasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2008. – B.13 – 16. 13
Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – Б.377.